

## **EFFEKTIV PEDAGOGIKA ASOSLARI**

*Andijon davlat chet tillari instituti talabasi  
Xoshimjonova Shohistaxon Akmaljon qizi  
Ilmiy rahbar: Mahliyo Mirzakarimova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida samarali pedagogikaning asosiy tamoyillari, metodlari va ularning amaliyotdagi qo'llanilishining afzalliklari tahlil etilgan. O'qituvchi va o'quvchi o'rtaqidagi samarali o'zaro ta'sir, o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlariga moslashgan yondashuvlar, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning o'rni yoritilgan. Maqolada effektiv pedagogika nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy jarayonning asosiy omili sifatida qaraladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, samaradorlik, innovatsion metodlar, ta'lim sifati, interfaol metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

**Abstract:** This article analyzes the main principles, methods and advantages of effective pedagogy in the modern education system. The effective interaction between the teacher and the student, approaches adapted to the individual abilities of students, the role of innovative technologies in the educational process are highlighted. The article considers effective pedagogy not only as a means of imparting knowledge, but also as a key factor in the educational process.

**Keywords:** pedagogy, efficiency, innovative methods, quality of education, interactive methods, person-centered education

**Аннотация:** В статье анализируются основные принципы, методы и преимущества их практического применения в современной системе образования. Особое вниманиеделено эффективному взаимодействию преподавателя и студента, подходам, адаптированным к индивидуальным способностям студентов, и роли инновационных технологий в образовательном процессе. В статье рассматривается эффективная педагогика как ключевой фактор не только передачи знаний, но и образовательного процесса.

**Ключевые слова:** педагогика, эффективность, инновационные методы, качество образования, интерактивные методы, личностно-ориентированное образование.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining oldida turgan asosiy vazifalardan biri – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga o‘rgatishdir. Bu vazifani samarali bajarish uchun pedagogika sohasida yangi yondashuvlar, metod va vositalarni qo‘llash talab etiladi. Shuning uchun ham “effektiv pedagogika” tushunchasi bugungi kunda alohida e’tibor kasb etmoqda. Bu tushuncha o‘qituvchi va o‘quvchining faol hamkorligi, o‘quv jarayonining interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan va natijador bo‘lishini ta’minlaydi.

### **Effektiv pedagogikaning nazariy asoslari**

Birinchi bo‘lib pedagogika nima ekanligi haqida bilib olishimiz kerak.

Pedagogika (qadimgi yunoncha: παιδαγωγική) — tarbiya, ta’lim hamda ma’lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o‘quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o‘rganiladigan o‘quv predmeti ham pedagogika deb yuritiladi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug‘ullangan. Zamonaviy pedagogika bolalar bilan bиргаликда kattalarning ham o‘quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi bilan shug‘ullanishni ko‘zda tutadi.

Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatları, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o‘quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo‘sinlarini belgilab beradi. Effektiv pedagogika – bu o‘qitish jarayonida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladigan, zamonaviy ilmiy-pedagogik yondashuvlarga asoslangan metodlar majmuasidir. U shaxsga yo‘naltirilgan, konstruktiv va kompetensiyaga asoslangan ta’lim tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Samarali pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri – individual yondashuv bo‘lib, har bir o‘quvchining psixologik holati, bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga oladi.

### **Interfaol metodlarning o‘rni**

Interfaol o‘qitish metodlari – samaradorlikni oshiruvchi asosiy vositalardan biridir. “Aqliy hujum”, “klaster”, “muammoli vaziyatlar”, “blits-so‘rov”, “rolli o‘yinlar” kabi metodlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni faol fikrlashga undaydi. Bunday yondashuvlar orqali o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoni tahlil qilish, jamoaviy ishslash ko‘nikmalari shakllanadi.

### **O‘qituvchining roli va kasbiy kompetensiysi**

Effektiv ta’limning muhim omillaridan biri – bu o‘qituvchining bilim darajasi, kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlaridir. Zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki rahbar, motivator va psixolog sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu boisdan, o‘qituvchilar doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishi zarur. Samarali muloqot pedagogik faoliyatning yuragi hisoblanadi. O‘qituvchining emotsiyal intellekti, madaniy sezgirligi va etika me’yorlariga amal qilishi o‘quvchi bilan mustahkam ishonch asosida aloqani ta’minlaydi. O‘quvchilarni faol tinglash, rag‘batlantirish, konstruktiv tanqid va empatiya vositasida o‘zaro hurmatli aloqalar shakllanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar orqali uzlucksiz muloqot imkoniyati ham pedagogik jarayonni kuchaytiradi.

### **Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim platformalari, onlayn testlar va virtual laboratoriylar – bularning barchasi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, “Learning Management System” (LMS) tizimlari orqali darslarni boshqarish, nazorat qilish va individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning individual o‘zlashtirish darajasi aniqlanib, mos materiallar tavsiya etilishi ta’limni yanada samarali qiladi.

Effektiv pedagogika – bu zamon bilan hamnafas yuruvchi, o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Ushbu maqolada qayd etilgan tamoyillar va metodlar pedagogik jarayonda keng qo‘llanilsa, nafaqat o‘quvchilar bilim darajasi, balki ularning mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Demak, ta’lim sifatini

oshirish uchun birinchi navbatda, o‘qituvchining kasbiy yondashuvi va metodik mahorati ustuvor bo‘lishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94.
2. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131.
3. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.
4. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.
5. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17.
6. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103.
7. Mirzakarimova M. CLIL TEKNOLOGIYALARI VOSITASIDA O ‘QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO ‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – С. 410-415.
8. МИРЗАКАРИМОВА М. М. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Novateur Publications. – 2022. – №. 1. – С. 1-128.
9. Mirzakarimova M. M. et al. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 12. – С. 321-324.

10. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishslash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 78-83.
11. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanshi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269.
12. Mirzakarimova M. M. et al. "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228.
13. Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim M. M. M. fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 216-222.
14. Mirzakarimova M. M. et al. O 'qituvchining muomala madaniyati //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 4. – C. 278-282.
15. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO 'NALTIRIB O 'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – C. 1-128.
16. Madaminjonovna M. M. Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 97-103.
17. Madaminjonovna M. M. et al. ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 51-55.
18. Salamat Yegeubayeva; Allanazarova Feruza Karimberdievna; Amantai Kunakbayev; Rakhimov Sherzod; Bobomurodova Munojat; Sherquziyeva Guzal Faxritdinovna; Bakhtiyor Omonov; Bobojonov Otobek Khakimboy ugli; Mirzakarimova Makhliyokhon; Khayitmuradov Anvarjon; I.B. Sapaev; Mirzayeva Mutabar Azamovna; Komilov Rustamjon Makhamadovich. "The Effect of Copper Oxide Nanoparticles on Hepatic and Renal Toxicity in Domestic Rabbits", Journal of Nanostructures, 14, 1, 2024, 150-155. doi: 10.22052/JNS.2024.01.015.
19. Умнов Д. Г., Кариев А. Д., Тешабоев А. Ю., Мирзакаримова М. М. Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников // Перспективы науки и образования. 2024. № 6 (72). С. 420–436. [doi: 10.32744/pse.2024.6.26](https://doi.org/10.32744/pse.2024.6.26).

20. Uzoqjonova, M. (2023). Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'lifi tizimi. *Science and Education*, 4(9), 344–347. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6297>.
21. Uzokjonova, M. (2023). STEAM technology and the importance of gamification in it. *Science and Education*, 4(10), 365–368. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6361>.
22. Uzoqjonova, M. (2024). EKOLOGIK MA'DANIYATNI YOSHLAR ONGIGA PEDAGOGIK METODLAR YORDAMIDA SINGDIRISH. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 1(4), 99–100. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/72>.